

DALILLAR VA ISBOT QILISH TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Toshkent shahar Advokatlar palatasi

“AHIL ADVOKATLAR XIMOYASI”

Advokatlar xaya'ati advokati

Akramov Behzod Azamat o'g'li

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada rivojlanib borayotgan mamlakatimizdagi jinoyat protsessida insonlarning huquq va erkinliklarining davlat himoyasida ekanligi, ularni himoya qilishda dalillarni aniqlash va ulardan isbotlashda foydalanish jinoyat-protsessida dalillarni aniqlash va isbotlashning mohiyati, tahlili, qo'llanilishi uning xalqimiz ravnaqi, sog'lom turmush tarzi yaxshilashdagi o'rni va ularni rivojlantirish jihatlari ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: jinoyat-protsessi, jinoyat-protsessi huquqi, dalillarni aniqlash va isbotlash, Konstitutsiya, qonuniylik, aybsizlik prezumpsiyasi, dalillar, isbotlash.

Акрамова Бехзод Азамат угли, юрист Адвокатской палаты города Ташкента «АНИЛ АДВОКАТЛАР ХИМОЯСИ»

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается вопрос о том, что права и свободы человека охраняются государством в уголовном процессе нашей развивающейся страны, о значении выявления и использования доказательств для их защиты, о сущности, анализе и применении выявления и доказывания доказательств в уголовном процессе. , и его роль в повышении благосостояния нашего народа и здорового образа жизни. Проблемы и аспекты их развития были проанализированы с научной и практической точки зрения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: уголовный процесс, уголовно-процессуальное право, выявление и доказывание доказательств, Конституция, законность, презумпция невиновности, доказательства, доказывание.

Tashkent City Bar Association “AHIL ADVOKATLAR XIMOYASI” lawyer
Akramov Behzod Azamat o`g`li

ABSTRACT: This article analyzes from a scientific and practical perspective the fact that human rights and freedoms are protected by the state in the criminal process of our developing country, the identification and use of evidence in their protection, the essence, analysis, and application of the identification and proof of evidence in criminal proceedings, its role in improving the prosperity of our people and a healthy lifestyle, and aspects of their development.

KEY WORDS: criminal procedure, criminal procedure law, identification and proof of evidence, Constitution, legality, presumption of innocence, evidence, proof.

Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga binoan, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan va bermaganligini shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdor, aybsiz ekanligi va ishni to`g`ri hal qilish uchun ahamiyatli bo`lgan boshqa holatlarning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlashlariga asos bo`ladigan har qanday haqiqiy ma`lumotlar jinoyat ishi bo`yicha dalil hisoblanadi[1].

Jinoyat protsessida dalillar tushunchasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy ma`lumotlar va ularning manbalari o`zaro bog`liqlikda bo`lib, ularning birlashuvi dalilning vujudga kelishiga asos bo`ladi. Tergov va sud harakatlarining bayonnomalari ham dalil kuchiga ega. Ular sifatli, mazmunli va savodli yozilishi shart. Bayonnomani yuritish ma`suliyati surishtiruvchi, tergovchiga, sud muhokamasi bayonnomasi esa sud majlisi kotibiga yuklatilgan. Dalillar faqat qonunda belgilangan manbalardan olinishi lozim. Bu manbalar Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasida belgilangan. Agar ma`lumotlar boshqa manbalardan olingan bo`lsa, bu ma`lumotlar ish bo`yicha dalil bo`la olmaydi. Shuningdek, qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o`tkazilgan

tezkor qidiruv tadbirlarining natijalari JPK normalariga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so'ng jinoyat ishi bo'yicha dalillar deb e'tirof etiladi[2].

Protsessual jihatdan isbotlash predmeti - bu jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatli va barcha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar yig'indisi. Isbotlash predmetiga chambarchas bog'liq bo'lgan isbotlash doirasi esa isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar, dalillar va ularning manbalari hajmi, chegarasini belgilaydi. Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida isbotlash predmetiga quyidagi isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar kiritilgan: jinoyat obyekti: jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar; sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek, jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlar; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish; jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi; jinoyatning to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari; ayblanuvchi, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar. Isbotlash jarayonida jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek, Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlar, qilmish va ularning ijtimoiy xavfli oqibatlari o'rtasidagi sababiy bog'lanishni o'rganish muhim o'rin egallaydi[3].

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Zero, davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo'nalishida ham keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki, mustaqil va xolis sudni talab qilish har bir insonning huquqi hisoblanadi. Bu huquq Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasi va O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan

boshqa xalqaro huquq hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Faqat mustaqil sudgina har bir fuqaroning ishini sudda xolis va oshkora ko'rish orqali toptalgan haq-huquqlarni himoya qilishi mumkinligiga ishonch uyg'ota oladi. Bu jihatdan Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga zamin yaratdi[4].

Ikkinchidan, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, oxirgi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh qilish borasida 40 dan ortiq Qonun, Farmon va qarorlar qabul qilinganligini, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallashini, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina ekanligi davr taqozosidir. Shunga ko'ra, 2021-yilda viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvi saqlanib, sud ishlarini yuritish turlari bo'yicha alohida sudlov hay'atlari tashkil etiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlari tashkil etilishi hududlarda yagona sud amaliyotini shakllantirishi fuqarolar va tadbirkorlarning ortiqcha ovoragarchiligini oldini olishga xizmat qiladi.

O'zgarishlardan yana biri shuki, endilikda ortiqcha sud instansiyalarini bekor qilish yo'li bilan "bir sud – bir instansiya" tamoyili joriy qilinishi esa tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining qarorlarini viloyat darajasidagi sudlar tomonidan apellyatsiya tartibida, apellyatsiya tartibida ko'rilgan sud qarorlarini esa Oliy sud tomonidan kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish, kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha sud qarorlarini esa Oliy sud raisi, Bosh prokuror va ularning o'rinbosarlari protestiga ko'ra kassatsiya tartibida takroran ko'rib chiqish yo'lga qo'yilishi, sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish instituti tugatilishi sudda har bir ish bo'yicha yakuniy xulosa qilishga erishiladi.

Dastlabki eshituv institutining joriy qilinayotganligi endilikda sudlarda ishlarni ko'rishda inson huquqlari va kafolatlarini yana-da kuchaytirish va taraflarning

bahslasha olish tamoyilini amalda ro'yobga chiqarishga, jinoyat ishini umumiy asoslarda ko'rishga monelik qilayotgan sabablarni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatini beruvchi qarorlar qabul qilish jarayonida taraflarning tortishuvi prinsipga so'zsiz rioya qilinishiga, sud muhokamasi davomida maqbul dalillardan foydalanish uchun imkon yaratishga xizmat qiladi[5].

Uchunchidan, Shavkat Mirziyoyev 21-noyabr kuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunni imzoladi.

Hujjat bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga, Fuqarolik-protsessual kodeksiga, Iqtisodiy protsessual kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga raqamli dalillar tushunchasi, raqamli dalillarni to'plash, taqdim etish, mustahkamlash, ko'zdan kechirish, tekshirish va baholash, ularni saqlash, qaytarish hamda yo'q qilish tartibini belgilovchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, "Notariat to'g'risida"gi, "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi va "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida raqamli dalillarni guvohlantirish va ularni tekshirish tartibi nazarda tutilmoqda. Ushbu qonun fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi, deyiladi hujjat matnida.

Xususan, jinoyat ishi doirasida guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshqa shaxslar elektron ma'lumotlarni ushbu ma'lumotlarning ko'chirma nusxasini elektron jismdan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan boshqa elektron jismga olish orqali taqdim etishga haqli.

Ma'lumot uchun, elektron ma'lumotlar elektron qurilmalardan va axborot tizimlaridan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yaratiladigan, ishlov beriladigan hamda saqlanadigan ma'lumotlardir.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud taqdim etilgan elektron ma'lumotlarni

mutaxassis ishtirokida qabul qilib oladi hamda elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan birlamchi elektron jismlarni ko'zdan kechiradi.

Ish uchun ahamiyatga ega bo'lmagan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron jismlar egalariga darhol qaytarib beriladi.

Ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlar, shu jumladan, elektron tarzdagi fayllar, audio, videoyozuvlar, internet tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar, shuningdek, boshqa elektron ma'lumotlar raqamli dalillardir.

Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga, basharti uning yaxlitligi va aynan o'xshashligi saqlansa, yo'l qo'yiladi. Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga yo'l qo'yilishi o'zidan mazkur ko'chirma nusxa olingan raqamli dalilning asli mavjudligi bilan ta'minlanadi[6].

To'rtinchidan, **tergov va sud jarayonida dalillar orqali isbotlashdagi xatolar** — bu dalillarning to'planishi, tahlil qilinishi yoki baholanishida yuzaga keladigan noaniqliklar va xatoliklar bo'lib, ular jinoyat ishlari bo'yicha adolatli va to'g'ri qarorlar chiqarilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Dalillar orqali isbotlashning muvaffaqiyatsiz amalga oshirilishi, ko'pincha nohaq hukmlarga, aybsiz odamlarning jazolanishiga yoki aybdorlarning jazodan qochishiga olib keladi. Dalillar orqali isbotlashda yuzaga keladigan xatolar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: **Dalillarni noto'g'ri yig'ish** — bu tergov organlarining yoki boshqa protsessual ishtirokchilarning dalillarni to'plash va ularni to'g'ri protsessual tartibda rasmiylashtirishdagi xatolaridir. **Protsessual xatoliklar:** Dalillarni yig'ish jarayonida protsessual me'yorlarga rioya qilmaslik (masalan, guvohlarni noqonuniy tarzda tinglash, shaxsiy huquqlarni buzish, so'roq qilishda zo'ravonlikdan foydalanish) dalillarning qonuniyligini inkor etishga olib keladi. **Dalillarning yo'qolishi:** Ba'zida dalillarni noto'g'ri saqlash yoki saqlashdagi nosozliklar natijasida, muhim materiallar yo'qolishi yoki buzilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, isbotlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. **Dalillarning noaniq yig'ilishi:** Dalillarni yig'ishda ularning manbai yoki mazmuni aniq bo'lmasligi, masalan,

guvohlarning ko'rsatmalarining noaniq bo'lishi yoki ekspertiza natijalarining xatoliklar mavjud bo'lishi.

Dalillarning baholanishida xatolar. Dalillarni baholash — bu tergovchi yoki sud tomonidan taqdim etilgan dalillarning ishonchliligi, to'g'riligi va ular bir-birini tasdiqlashi haqida qilingan tahlildir. Dalillarni baholashda yuzaga keladigan xatolar ko'pincha nohaq hukmlarga olib keladi. **Dalillarni bir-biriga nisbatan noto'g'ri tahlil qilish:** Sud yoki tergov organlari ba'zan taqdim etilgan dalillarni noto'g'ri baholashadi.

Masalan, guvohlarning ko'rsatmalari yoki ekspertiza xulosalari bir-birini tasdiqlamasa, ularni noto'g'ri solishtirish yoki e'tiborga olishda xatoliklar yuzaga kelishi mumkin.

Dalillarning to'g'riligini inkor etish: Ba'zida, dalillarni tekshirishda o'tkazilgan xatolar natijasida, sud noto'g'ri baholash asosida hukm chiqara oladi. Masalan, jismoniy dalillar (qurol, izlar va hokazo) yoki ekspertiza natijalari noto'g'ri baholanib, ular e'tiborsiz qolishi mumkin. **Shubhalarni inkor etish:** Agar dalillar o'rtasida shubha bo'lsa, sud buni e'tiborga olmasligi yoki ayblovchi tomonning isbotlash majburiyatini bajarilmagan deb hisoblamasligi mumkin.

Dalillarning shubhalarga asoslangan bo'lishi. Dalillarning shubhalarga asoslangan bo'lishi — bu sud yoki tergov organlarining ayblovni isbotlashda yetarli darajada aniq va ishonchli dalillarni topa olmaslik holatidir.

Shubhalarga asoslanish: Agar barcha taqdim etilgan dalillar o'zaro qarama-qarshi bo'lsa, yoki ularning ishonchliligi shubhali bo'lsa, sud ba'zida bu dalillarni inkor etmasdan, faqat shubhalarga asoslanib qaror chiqarishi mumkin. Bu holat adolatni ta'minlamaydi, chunki sud aybsiz shaxsni jinoyatga aloqador deb hisoblashga olib kelishi mumkin.

Ekspertiza xulosalaridagi xatolar: Ekspertiza natijalari ba'zan noto'g'ri o'tkazilishi yoki ekspertlar xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Masalan, tibbiy ekspertiza natijalarida xatolik yoki noto'g'ri tahlil qilish dalillarning to'g'riligiga shubha keltirishi mumkin.

Beshinchidan, **dalillar** va **isbot qilish** tushunchalari jinoyat protsessida, shuningdek, boshqa huquqiy jarayonlarda, markaziy o'rin tutadi. Ular sudlov jarayonining asosi bo'lib, shaxsning jinoyatga aloqadorligini yoki aloqasizligini aniqlashda va adolatli qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Quyida bu tushunchalar aniqroq tushuntirilgan. **Dalillar** — bu jinoyat ishida yoki boshqa huquqiy protsessda, shaxsning ayblovini yoki aybsizligini isbotlashga yordam beruvchi ma'lumotlar va faktlar. Jinoyat protsessida dalillar ishtirokchilar tomonidan taqdim etiladi va sud ularni tekshiradi, baholaydi.

Dalillar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: **Yozma dalillar** — bu turdagi dalillar hujjatlar, protokollar, yozilgan arizalar, so'rovlar, shartnomalar va boshqa huquqiy hujjatlardan iborat bo'ladi. Masalan, guvohnomalar, ekspertiza xulosalari, tergov protokollari va boshqalar. **Og'zaki dalillar** — guvohlarning so'zlari va suddagi ifodalari. Guvohlar o'z ko'rganlarini yoki eshitganlarini sudda aytadilar. **Fizik dalillar** — o'lchovlar, tajribalar, jinoyat joyidan olingan predmetlar (masalan, qurol, bosilgan izlar, maxsus kimyoviy moddalar) va boshqalar. Bunday dalillarning to'g'riligini ekspertlar tekshiradi. **Ekspertiza dalillari** — mutaxassis yoki ekspert tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijalari. Ekspertiza xulosasi ham dalil sifatida qabul qilinadi, masalan, tibbiy ekspertiza yoki biologik ekspertiza natijalari. **Elektron dalillar** — zamonaviy texnologiyalar yordamida olingan ma'lumotlar, masalan, telefon yozuvlari, kompyuter ma'lumotlari, video va audio yozuvlar, internetdagi axborotlar. **Jismoniy dalillar** — jinoyat joyida olingan moddiy predmetlar, masalan, tanadan olingan izlar, jangovar qurollar yoki boshqa o'ta muhim buyumlar.

Isbot qilish — bu dalillar yordamida ayblov yoki himoya qilishning tasdiqlanishi, ya'ni jinoyatni sodir etganlik yoki sodir etilmaganligini sud tomonidan dalillar asosida aniqlash jarayonidir. Isbot qilish, asosan, quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: **Ayblovchi tomonning isbotlash majburiyati**: Jinoyat protsessida ayblovchi tomon (odatda prokuratura) gumon qilinayotgan shaxsni aybdor deb topish uchun barcha zarur dalillarni taqdim etishi kerak. Ayblovchi tomon, odatda, isbotlash uchun barcha kerakli

materiallar, guvohlarni va ekspertiza xulosalarini taqdim etishi lozim. **Himoyaning isbotlash majburiyati:** Himoyachi, ayblovchi tomonning ayblovini inkor etish va himoya qilish uchun ham dalillarni taqdim etishi mumkin. Himoyaning asosiy vazifasi — ayblovning isbotini inkor etishdir.

Oltinchidan, **protsessual isbotlash tamoyillari:** Jinoyat protsessual kodeksiga ko'ra, isbotlashning eng yuqori darajasi — bu "**aybdorlikni isbotlash**" yoki "shubhasiz isbotlash" talabidir. Ya'ni, shaxsning jinoyatga aloqadorligini isbotlashda barcha dalillar bir-birini qo'llab-quvvatlashi va ishonch hosil qilish kerak. Agar dalillar yetarli darajada ishonchli bo'lsa, sud shaxsni aybdor deb topishi mumkin.

Isbot qilishning asosiy prinsiplari: Isbotlashda gumon qilinayotgan shaxsning aybsizligi farazi: Jinoyat protsessida **aybsizlik farazi** (aybdorlik farazi) tamoyili amal qiladi. Ya'ni, gumon qilinayotgan shaxs aybdor emas deb faraz qilinadi, va ayblovchi tomon o'zining ayblovini isbotlashi kerak.

Isbotlashning majburiyati: Ayblovchi tomonning isbotlash majburiyati mavjud. Agar dalillar yetarli bo'lmasa, gumon qilinayotgan shaxs aybdor deb topilmasligi kerak.

Isbotlashda protsessual me'yorlar: Dalillarni taqdim etish, ularni baholash va tekshirishda qonunchilikka to'liq rioya qilish zarur. Har bir dalil o'ziga xos protsessual tekshiruvdan o'tishi, kerakli ekspertizalar o'tkazilishi va guvohlarning so'zlari tekshirilishi lozim. **Isbotlashning yuqori darajasi:** Isbotlashda "shubha yo'qligi" prinsipi amal qiladi. Ya'ni, sud shaxsni aybdor deb topish uchun barcha dalillar bir-birini qo'llab-quvvatlashi va jinoyatning sodir etilganligini ishonchli tarzda ko'rsatishi kerak. Agar dalillar shubhali bo'lsa, sud gumon qilinayotgan shaxsni aybdor deb topmasligi kerak.

Dalillarni baholash bu sudning taqdim etilgan barcha dalillarni tekshirish va ularga asoslanib qaror chiqarish jarayonidir. Baholashda sud quyidagi omillarni hisobga oladi: **Dalillarning ishonchliligi va haqqoniyligi:** Sud taqdim etilgan dalillarning haqqoniyligi va ishonchliligini baholaydi. Misol uchun, guvohlarning so'zlari, agar ular shubhali bo'lsa yoki o'zgartirilgan bo'lsa, ularning ko'rsatilgan dalili ishonchli deb

hisoblanmasligi mumkin. **Dalillarning to'liq va izchil bo'lishi:** Sud barcha dalillarni o'zaro mos ravishda baholaydi. Agar bir dalil boshqa dalillar bilan o'zaro bog'liq bo'lsa, bu aloqani hisobga olib baholash kerak. **Dalilni qo'llab-quvvatlash:** Har bir dalil o'zining boshqa dalillar bilan qo'llab-quvvatlanishini tekshirish zarur. Masalan, guvohning so'zlari boshqa yozma dalillar yoki ekspertiza xulosalari bilan tasdiqlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, buzilgan huquqlari va erkinliklarini qayta tiklash sohasida jinoyat-protsessual kodeksida ko'rsatilgan bo'lib, dalillar orqali isbotlash jarayonida yuzaga keladigan xatolar, jinoyat protsessining to'g'ri va adolatli bo'lishiga jiddiy xavf tug'dirishini anglab, tergov va sud organlari dalillarni yig'ish, baholash va tahlil qilishda o'z protsessual majburiyatlarini to'liq va to'g'ri bajarishlari lozimligini, dalillarni noto'g'ri yig'ish, baholash yoki shubhalar asosida qaror chiqarish, nohaq hukmlarga olib kelishi mumkinligini, dalillarga asoslangan isbotlash jarayonida yuzaga kelgan xatolarni minimallashtirib, huquqiy tizimning ishonchliligini saqlab qolish va yana ham takomillashtirish

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent – 2021, 46-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent – 2021, 47-48-bet.
4. SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI STRATEGIK ISLOHOTLAR INSON MANFAATLARI UCHUN XIZMAT QILMOQDA. «Taraqqiyot strategiyasi» markazi, bo'lim boshlig'i Nilufar NODIRXONOVA. Elektron resurs:
<https://strategy.uz/index.php?news=1442&lang=uz>

5. © 2020 “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalarini tahririyati» DM. Sud-huquq sohasida yangi davr. Toshkent shahar Jinoyat ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tuman sudi sudyasi Sanjar IBADOV. Elektron resurs: <https://yuz.uz/uz/news/sud-huquq-sohasida-yangi-davr-boshlandi>

6. Raqamli dalillarni sudga taqdim etish tartibi tasdiqlandi. Elektron resurs: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/26/digital-evidence/>